

10-mavzu. Kashtachilik tarixi va tayyorlash texnologiyasi.

Reja:

- 1.Kashta turlari.
- 2.Bezakli va mazmunli kashtalar.

1.Kashta turlari.

Azaldan sharq mamlakatlarida, xususan markaziy osiyoda go'zallikka intilish, yashash joylari, xonalarga, oddiy buyumlar va kiyimlarga ham sayqal berib bezatish an'anaviy odat bo'lgan. Bu jarayon bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, san'at darajasiga ko'tarilgan. Ayollarimiz va qizlarimiz milliy kiyimlar do'konlaridan kashtachilik va zardo'zlik usulida bezalgan kiyim va buyumlarni harid qilishlari mumkin. Lekin, doim ham ko'ngildagidek narsani harid qilish imkoni bo'lavermaydi. Bu masalani ijobiy hal qilishda ayollarimizni bichish-tikish ishidan habardor bo'lishlari juda qo'l keladi. Lekin, kiyim va buyumlarni kashtachilik va zardo'zlik usullarida bezashni uddalash har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. O'ylaymizki, har bir xonadonda chevar ayol-qizlarning bo'lishi oila byudjetiga va ma'naviy hayotiga katta yordam bo'ladi.

Kashtachilik san'atining tarixi va uning rivojlanishi

O'rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo'lib, oilada kashta tikish bilan ayollar shug'ullanishgan. O'tmishda bu kashtalar oq va tabiiy malla shoyi, adras, hisoriga, baxmal matolarga tikilgan, keyinchalik satin, shoyi, baxmalga tikiladigan bo'ldi. Ish jarayonida ular o'z mahoratlarini oshirishgan, bir-biridan va kattalardan avlodlar tajribasini o'rganishgan. Xalq badiiy hunarmandchilik mahsulotlari faqat bizning mamlakatimizda emas, balki chet mamlakatlarda ham cheksiz talab qilinadi. Pliniyning aytishicha, Vavilon kashtachiligi qadimdan mashhur bo'lib, matoga turli rangdagi iplar bilan kashta tikishni o'sha yerda kashf etishgan.

Keyinchalik Vavilon Rim imperiyasi tarkibiga kirgach ipak, zar yoki jun ip qo'shib tikilgan rang-barang kashtachiligi bilan shuhrat qozongan. Kashtachilik san'atining an'analari Vizantiyada ham rivoj topgan.

XIII va XV asrlarda Kichik Osiyo doirasida paydo bo'lgan hamda Vizantiya imperiyasini barbod qilgan usmoniy turklar ham ushbu san'atga o'zlarining munosib ulushlarini qo'shganlar. Qrim va Kavkazning qayeridagi Vizantiya madaniyati uzoq vaqt kuchli ta'sir o'tkazgan bo'lsa, o'sha yerda kashtachilik rivojlanavergan. Qadimgi Rus ham Vizantiyaga taqlid qilib kashtachilik san'atini o'rgangan. Rus kashtasi gullarining xarakteriga va tikilish usullariga ko'ra juda turli-tumandir. Popok (yo'rma) chokli kashta tikish Olonets, Vologda oblastlari va Arxangelsk oblastining g'arbiy qismida keng tarqalgan. Hozirgi vaqtda Rossiyada ellikdan ortiq baxyasimon kashtado'zlik korxonalari bor. Ivanovo, Ryazan, Kalinin, Smolensk va boshqa oblastlarda kashtado'zlik markazlari bo'lib, u yerdagi korxonalarda turli kiyimlar va uy ro'zg'orni bezaydigan turli buyumlar ishlab chiqariladi.

XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro etilishi kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi.

Kashtado'zlikning yirik namoyandalardan Andijondagi "Qizil bayroq" arteli rassom kashtado'zi X.Nazarov, Samarqanddagi "Xotin-qizlar mehnati" arteli kashtado'zi Usmon Shokirov, toshkentlik kashtado'z va chizmakash Xayri Sobirovalar kashta buyumlariga yangi turli xil naqsh kompozitsiya va tikish usullarini yaratdilar. X.Sobirova onasi Zaxira Mirxoliqovadan qo'lda, mashinada tikish sirlarini va chizmachilikni o'rgandi. X. Sobirova 15 yoshidan boshlab onasining kashtado'zlik hunarini davom ettirib, "Sharq guli" va "Ilg'or" nomli Stalin artelida 16 yil ishlab ko'p shogirdlar yetishtirishda o'z hissasini qo'shdi. Yetishib chiqqan kashtachilar o'zining san'ati va tabiatiga ko'ra go'zallik xaqidagi orzularini ifodalashga harakat qilganlar.

O'zbek milliy kashtachiligi amaliy san'atning eng qadimiy turlaridan bo'lib, u xalqning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashtachilik san'ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. O'zbek xalq ustalari qo'llari bilan tikilgan kirpech, so'zana, zardevor, gulko'rpa, choyshab kabilar Belgiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Hindiston, Afg'oniston kabi xorijiy, shuningdek, mamlakatimizning Farg'ona vodiysida faqat xonadonlarda emas, balki

muzeylarda doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan. Hozirgacha buyumlar o'ziga xos go'zallik, nafis bezaklarning rang - barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda.

O'zbekiston kashtachilik san'ati maktablari

Kashtachilik - O'zbekiston amaliy bezak san'ati turlari orasida o'zining qadimiy an'alariga ega bo'lgan san'at turi hisoblanib, O'rta Osiyoning lirik savdo - hunarmandchilik markazlari qishloqlariga keng tarqalgan. San'atning ushbu turi o'zining poetik rang - barangligini saqlab qolishi bilan birga, xalq orasida qadrlanib, o'z mohiyatini yo'qotmadi. Kashtachilik asosan, oltita hududiy guruhlariga, ya'ni maktablarga bo'linadi. Jumladan, Nurota, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent hamda Farg'ona kashtachiligi maktablarga.

Mallarang, tillarang, havorang, pushti, nofarmon, och yashil ranglar bir - birlari bilan uyg'unlashib, so'zanaga o'zgacha bag'ridillik baxsh etadi. Naqshlari romb shaklida tuzilgan hamda tishli barglar bilan bezatilgan ("tobadoni" - katakli, panjarali) so'zanalar ham Nurota kashtachiligining yana bir turi hisoblanadi.



Kashtachilik – Buxoro amaliy bezak san'ati turlari orasida o'zining qadimiy an'alariga ega bo'lgan san'at turidir. Afsuski, kashtachilik namunalarining eng qadimiylari saqlanmagan. Ispan elchisi Pui Gonsales de Klavixo Amir Temur saroyida o'zbek milliy kashta bezaklarini ko'rganini o'zining "Kundalik" asarida yozib qoldirgan.

Ba'zi hollarda chodirlar va katta binolarni arab yozuvida forsiy va turkiy tillarda baytlar tikib bezatishgan. Ipak iplari tabiiy bo'yoqlarga bo'yash uchun ip kalavalari achchiq tosh eritilgan suvga solib qo'yilgan, kiyin piyoz yoki anor po'stlog'idan olingan ranga solib qaynatilgan va sirkali suvga botirib olib quritilgan. Quritilgan ip qayta kalava qilinayotganida silliq tayyoqcha bilan tekislangan, XX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro qilinishi, ommaviy ravishda qo'l mehnatining ixtiro qilinishi, ommaviy ravishda qo'l mehnati o'rniga standart mahsulotlarning ishlab chiqarilishi ularning badiyiligiga, umuman, milliy kashtachilik rivojiga putur yetkazadi.



Buxoro milliy kashtachilik maktablari va san'atining o'ziga xos tabiiy bo'yoqlarining qo'llanishi texnologiyasi, ipakdan to'qilgan matolarda kashtalarning qadimiy nusxalari tikilayotganligi barchaning diqqat – etiborini o'ziga tortmoqda.

Buxoro viloyatining G'ijduvon, Shofirkon, Vobkent, Qorako'l tumanlarida kashtachilik maktablari faoliyat ko'rsatmoqda. Bu maktablarda kashtalarning o'ziga xos belgilardan biri ularda "Yo'rma" choki mahorat bilan qo'llanishi, havorang, gul rangi, binafsha, pushta, och sariq, qizil malina va ko'k ranglarning uyg'unlashishidir. Buxoro kashtalarining yo'rma choki, tuzilishi, gullari xilma-xilligi bilan farq qiladi.

("Tobadoni" - katakli, panjarali) so'zanalar ham Nurota kashtachiligining yana bir turi hisoblanadi. Uning kataklari shoxli barglar, shoxli gullar va kosagullar, hamda qushlar va hayvonlarning shakli bilan to'ldirilgan. Shunday so'zanalar ham borki, ular mato fondidan ayrim gulli motivlar shaxmat tarzida joylashgan. XIX asr

oxiri XX asr boshlarida Nurota kashtachiligida keskin pasayishi seziladi. Gulli motivlar detallarning rang - barangligini yo'qotib, bir xil doiralarga aylanib qoladi.

Nurota kashtalari asosan "bosma" uslubi bilan tikiladi va naqshlarning cheti zanjirsimon uslub bilan aylantiriladi. Kashta ranglari och ranglar bilan tikilgan. Nurota kashtachiligida quyidagi kashta turlari va badiiy buyumlar tikiladi: so'zana, nimso'zana, takiyapo'sh, joynamoz, joypo'sh, zardevor, gulko'rik, dastorpech, belbog', qo'lro'mol, yostiq, oynaxalta, choyxalta, choyshab. Kashta asosan bo'z, chit, satin, shoyi, baxmal movutga tikiladi. Iplari ipakdan yigirilib, bo'yoqlari tabiiy o'simliklardan olinadi. Lekin hozirgi kunda sun'iy toladan yigirilgan va kimyoviy bo'yoqlar bilan bo'yalgan iplar kashtachilikda ishlatilmoqda. Nurota kashtalarini engil, yorqin tonlar: qum, oltin, havorang, malina, pushti, och ko'k roangli iplari bilan tikilgan. Kashtachilik san'atining qadimgi maktablaridan bo'lmish Buxoro viloyatining milliy kashtachilik, san'atini o'ziga xos xususiyatini, tabiiy bo'yoqlarini qo'llanilishi texnologiyasi va bezaklarining qadimiy nusxalarini tikilishi, shu kunda xalqimiz diqqat e'tiborini o'ziga tortdi.

Naqsh va uning turlari

Naqsh - arabcha tasvir gul degan ma'noni anglatadi. Kashtado'zlik san'atida har bir millatning o'ziga xos eng ko'p qo'llaydigan naqshlari bo'ladi. O'zbek kashtalarida o'simliksimon, geometrik hamda gul naqshlari ko'p bo'lsa, rus kashtachiligida geometrik, o'simliksimon shakllar, gullar, qush va mevalar ko'p tasvirlanadi, qozoq va qirg'iz kashtachiligida esa ko'proq hayvonlar, shox va tuyoqlarni eslatuvchi elementlar tasvirlanadi. Rangtasvir vositalar yordamida ishlangan, nur va soyalar hajmni keltirib chiqaradigan, shu bilan birga o'ylamay - netmay tabiatdan aynan ko'chirishga intilmagan rasmchini naturadan yaqinroq bo'lishi mumkin.

Kashtachilikda ranglar ahamiyati

Kashtachilikda rang asosiy va muhim o'rinni agallaydi. Kashtaning rangi uning fonidan ya'ni, asosidan kelib chiqib, rang koloriti tanlanadi. Oq bo'z hech qachon

sutdek oppoq bo'lmaydi. Uning biroz kulrang, sarg'ish tusi uzviy koloritni hosil qilishga bir qadar mosdir. Agar fon bo'lsa, u holda shu rangga mos kashta ipaklari tanlab olinadi. Ba'zan fon ipaklar bilan birga ornamentning rang-barang ochilibturishiga xizmat qiladi.



2. Bezakli va mazmunli kashtalar.

Milliy hunarlardan biri o'zbek kashtachiligi o'zining boy tarixiy merosi, an'ana va qadriyatlariga ega bo'lib hozirda ham o'z mavqegini yoqotmagan.



Kashtachilikda ishlatiladigan bezak buyum turlari bilan tanishib chiqamiz.

Do'ppi – O'zbekistonda keng tarqalgan engil bosh kiyim. Do'ppi kiyish dastlab Eronda va turkiy xalqlari o'rtasida, Rossiyada esa XIII asrda rasm bo'lgan. Asrlar davomida do'ppining turli xillari vujudga kelgan. Baxmalga, satinga, sidirg'a shoyiga ip, ipak va zar bilan do'ppi gullari tikilgan. O'zbekistonda Toshkent,



Chust, Buxoro, Samarqand, Boysun, Shahrisabz do'ppilari mashhur bo'lib, ular o'ziga xosdir. Jumhuriyatimizning barcha rayonlarida do'ppi tikiladi. Uning Iroqi, CHust do'ppi, gilam do'ppi, chakma to'r, qizil gul, Piltado'zi, Zar do'ppi, To'ldirma deb nomlanadigan milliy do'ppilar bor. Har bir do'ppi yaratilish uslubiga ega bo'lib, ular bir-biridan farq qiladi. O'zbekistonda

ommaviy bosh kiyimi asosan uch xil shaklga ega bo'ladi. "Quloq", "arag'chin", "tusdo'ppi".

Quloq - konussimon bosh kiyim. U asosan darveshlar qalpog'i. Uning matog'i toq uchburchak parchalaridan bichilib yonlamasiga tikiladi. Quloq (erkaklar bosh kiyimi) hozir juda kam uchraydi.

Arag'chin - sharsimon do'ppi, uni asosan keksalar kiyadi. Toshkentda sharsimon do'ppilar kanda xayol, bosma, chakmato'r, iroqi chok usullarida tikiladi.

Tus do'ppi - Keng tarqalgan yassi yuzali do'ppi. Ko'pincha tus do'ppi chust do'ppi deb yuritiladi. Tus do'ppilarning birgina klassik variantining o'zida sakkizta yuvelir chok uslubi qo'llaniladi. Masalan, zanjira, to'g'ri chok, chita, kungura, etalatma, taroq, ova, pildiroq. CHust do'ppisining tepasiga kizakdan kvadrat shaklida bo'rtib chiqib, yarim shar ko'rinishida bo'ladi. Toshkent



do'ppisi sidirg'a baxmaldan (gulsiz) tikilgan bo'ladi. Buxoro do'ppilari sidirg'a yoki gulli baxmaldan jiyakli qilib tikiladi, jiyagi turli xil ipaklardan rangdor naqshli yo'rma usulida tikilgan bo'ladi.

Joynamoz - yerga solib ustida namoz o'qiydigan to'shama. Islom diniga e'tiqod qiluvchilar ishlatishadi. U ibodat vaqtida kishini bu dunyodan ajratuvchi omil deb tasavvur qilinadi. Joynamoz har xil matodan tayyorlanib, uning uch tomoni mehrob shaklida tikilgan bo'ladi. Undan masjid, madrasa va uylarda foydalaniladi. U turli o'lchamda bo'ladi. Ibodatni kanda qilmaslik uchun boshqa narsalardan foydalanish mumkin. Masalan, chopon, qiyiqcha, sholcha kabilardan, chunki ular diniy nuqtai nazardan pok hisoblanadi. Joynamoz kashtachilikda juda chiroyli qilib bezatilgan bo'ladi.



Zardevor - uy jihozi, u sidirg'a shoyi baxmal, satinga kashta tikib bezatilgan



badiiy buyum . Zardevor o'zbek hamda tojiklarda yangi tushgan kelinning uyiga, shiftiga yoki devoriga ilib qo'yiladi. U zar ip yoki ipak gajimli bo'lib, eni 40-70 sm, uzunligi mo'ljallangan uyning devoriga moslab tikiladi.

Palak - devorlarga ilinadigan eng yirik, eng qimmat bezak buyumlaridan biri. Palakda

osmon va to'lin oy aks ettiriladi. Uni qadimda oq yoki malla bo'zga kashta tikib tayyorlangan. U so'zanadan gullarining yirikligi, zaminiga ham kashta qoplanishi bilan farq qiladi. Palakni o'rtasida yirik oy tasviri qizil qirmizi, pushti ipak bilan

kashtalanadi va atrofiga juda chiroyli qilib o'simliksimon naqshlar



tikiladi. Naqshlar ichida ko'pincha bodom, qalampir elementlari qo'llaniladi. Palakda qirqtacha oy ham tasvirlash mumkin, shuning uchun oyini soniga qarab olti oyli palak, o'n ikki oyli palak, hattoki katta uylar uchun qirq oyli palak tikilgani bizga ma'lum. Oylar turli ranglar bilan bir necha xil tasvirlangan. Mashhur kashtado'zlar ba'zida oyni ajoyib naqshlar bilan bezab, o'z mahoratlarini namoyon etganlar. Agar oyni ichi sidirg'a rangda ifodalangan bo'lsa, uni oypalak, agar naqshli bo'lsa gulpalak va hokazo nomlar bilan yuritiladi. Keyingi vaqtlarda palakni qo'l mehnati ko'p bo'lgani uchun so'zana deyila boshladi. Lekin hozir palakni qo'lda tikishga katta ahamiyat berilmoqda.

Kirpech – kirpo'sh, tokchaga taxlab qo'yilgan kiyim-kechak ustidan yoki devorni



vertikal bo'sh joylariga ilib, oyni bezatib turishi uchun ishlatiladigan badiiy buyum. Kirpech kashtalari qo'lda yoki mashinada tikiladi. Kirpech qo'lda ilma kashta bilan bezaladi. U kiyim-kechakni changdan saqlaydi va oyni bezab turadi. Odatda, palakka o'xshatib tikilgani kirpech palak deb yuritiladi. Bu turi ham keng ishlatiladi.

So'zana – forscha so'zani deb ham



yuritiladi, igna bilan tikilgan degan ma'noni beradi. So'zana matoga kashta tikib tayyorlangan badiiy buyum bo'lib, xonani bezatish uchun devorga ilib qo'yiladi. U satin, baxmal, shoyi va boshqa matolarga kashta tikib tayyorlanadi. U o'ziga xos badiiy ko'rinishga ega. Matoning rangidan ustalarimiz kashta zamini sifatida

foydalanadilar. Shuning uchun palakdan farq qiladi. So'zana har bir xonadonda bo'lgan, chunki bir qiz turmushga chiqishidan oldin o'zi uchun so'zana tayyorlagan. So'zana kelinlarning sepi hisoblangan. Kambag'al oilada so'zanani malla, oq bo'zdan, badavlatroqlarida esa shoyidan, baxmaldan tikishgan. So'zana uchun kompozitsion joylashgan o'simliksimon naqshlardan foydalaniladi. So'zana o'rtasida ko'pincha doirasimon gul tikilib atrofi guldor islomiy naqshlar bilan bezatiladi. So'zana tikish juda qadimdan rivojlangan bo'lib XIX asrgacha bo'lgan so'zanalar saqlanmagan. Faqat XIX asrga oid Samarqand, Buxoro, Nurota, Fag'rona, O'ratepa, SHahrisabz, Toshkent, Farg'ona va boshqa joylardagi so'zana turlaridan namunalar bor. San'atning bu turi ayniqsa O'zbekiston va Tojikiston territoriyasida qadimdan keng tarqalgan. Keyingi paytlarda 40 yillardan boshlab so'zana mashinada tikilib kelmoqda.

CHoyshab - forsha-tojikcha ro'yotun chodiri degan ma'noni bildiradi. CHoyshab asosan taxmonga tutish, yotganda yopinish uchun, to'shak ustidan to'shaladi. To'shak ustidan yoziladigan choyshab kam kashtali oq surup, taxmonga tutiladigan satin, shoyi, baxmal va boshqalardan tikiladi. Hozirgi vaqtda choyshabdan so'zana kabi badiiy buyum sifatida ham foydalanib kelinmoqda.



Kashta tikish texnologiyasi

Kashta turli rangdagi ipak, mulina, zar ip bilan igna, ilmoqli bigizda har xil matoga mashinada gul tikishdir. Kashta har xil kiyimlarga, ro'zg'or buyumlariga tikiladi. Kashtachilikda mato, kigiz, charm, karton, zig'ir, jun, ipak, sun'iy iplar, zar iplar, mayin sim, xom charmdan tayyorlangan tasmalar, munchoq, marjon, metall pulakcha, qimmatbaho tabiiy va sun'iy toshlar, shishadan tayyorlangan munchoqlar va boshqa materiallar ishlatiladi. Kashtachilikda o'ziga xos ish qurollari mavjud bo'lib, ular o'ziga xos operatsiyani bajaradi. Kashtachilikda ignalar, ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar, to'g'nag'ich, angishvona qaychi hamda chambaraklar ishlatiladi:




Chambarak asosan yog'ochdan yasaladi, u doira, kvadrat, to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'ladi. Kichik kashtalarga doira chambarak ishlatiladi, chunki u qulaydir. Hamma kashtalarga ham chambarak ishlatilavermaydi. Ip va igna kashta


tikiladigan matolar qalinligiga mos qilib tanlanadi. Kashtachilikda yog'och dastali ikki xil, ya'ni ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar ishlatiladi. Ayrim materiallarga masalan, charm va kartonga qiynalmasdan tikish uchun ilmoqsiz bigizlar ishlatiladi. Naqshlar uchun o'tkir uchli 10-12 sm uzunlikdagi qaychilar ishlatiladi. Tikish qulay bo'lishi uchun qatim 50-60 sm dan uzun bo'lmasligi lozim, kashta chambarakda tikilsa angishvona qo'llanilmaydi. Naqsh nusxasi har xil materiallarga har xil yo'llar bilan tushiriladi. Masalan, nusxa ko'chiriladigan qog'ozlar axta, yorug'lik yordamida, naqsh chizilgan qog'ozni material ustidan ko'klab chiqiladi keyin bu qog'ozlar yirtib olinadi. Kashtaga iplar rangini moslab tanlash kashtado'zdan katta mahorat hamda did talab qiladi. To'g'ri tanlangan ip kashtaning jozibador chiqishiga sabab bo'ladi.




Qo'lda kashta tikishning ikki turi mavjud: birinchisi matoning arqoqhamda o'rim iplarini sanab kashta tikish, ikkinchisi esa matoga gul tasviri konturini chizib, erkin kashta tikish turlari. Arqoq o'rim iplari kesishtirib tikilgan polotno yoki bo'z shaklida to'qilgan matolarga tikiladi. Buning sababi kashta tikishda mato iplarini sanab tikishga qulaydir. Sanama kashta turi O'zbekistonda keng tarqalgan. Erkin kashta mato tanlamaydi, tushirilgan tasvir chiziqlari asosida tikiladi. O'zbek kashtachiligida yo'rma, ilma, iroqi, bosma, xomdo'zi, chamak, chipta xayol, baxya choklar keng tarqalgan. Badiiy kashtalarda turli joydan turli choklar ishlatiladi. CHunonchi SHahrisabzda yo'rma, kandaxayol, Iroqi, Toshkentda ko'proq bosma choki, Buxoro, Nurota, Samarqand yo'rma choki bilan tikiladi.




CHamak choki – kashtatikish choklaridan biri bo'lib, chapdan o'ngga ikki parallel chiziq bo'ylab tikiladi va ip o'tkazilgan igna o'ngdan sanchiladi. So'ng yuqoriga chapga tomon qiya qilib chiqariladi va pastki chiziqqa parallel ravishda to'g'ri qadaladi pasti ham qiya qilib chiqariladi. CHamak choki ko'pincha naqshlarni ramkaga olishda yoki do'ppi kizaklariga badiiy bezak berishda ishlatiladi. Qaychini kichik o'tkir uchlisi ishlatiladi. CHamak choki rus kashtado'zlari orasida "kozlik" deyiladi.




Baxya choki - kashta chetlarini mustaqamlashga xizmat qilib, matoga xuddi ko'klagandek, lekin bir tekis chok qamda masofa qisobga olinib tikiladi. SHundan so'ng mato o'girilib yana tikib chiqiladi, natijada tekis ip chiziqhosil qilinadi. Bu chok juda qadimdan qo'lda, keyinchalik mashinada tikiladigan bo'lgan. U ikki qator, ya'ni qatorlar o'zaro tutashib chiqishi ham mumkin.



Kuppa choki turli yo'nalishda, ya'ni chapdan o'ngga, o'ngdan chapga, yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga sidirg'a tikib hosil qilinadi. Yonma-yon tikiladigan choklar bir tekis yoki gul shakliga qarab kichikdan kattalashib, kattadan-kichiklashib boradi. Bu chok duro'ya, (ikki tomonlama) sanama, piltado'zi nomlar bilan yuritiladi. Do'ppido'zlikda va kashtalarda juda keng foydalanadi.



SHu xayol - duro'ya choka, matoga igna qadalib bir me'yorda tikib chiqiladi, teskari o'girib yana tikib chiqiladi. SHu tariqa matoning oldi va orqa tomonida bir xilda gul qosil qilinadi. Bu chok bilan ikki tomoni qam ko'zga tashlanadigan buyumlar, ya'ni sochiq, ro'mol va boshqalarni bezashda ishlatiladi.



Yo'rma choki-yo'rmaki, ilmoqli bichiq yoki igna bilan matoning o'ng tomonida xalqalar zanjiri qosil qilib tikilib, bigizga o'tkazilgan ipak matoning

sirtida chap qo'l bilan ushlab turiladi. Sanchilib chiqqan igna bilan esa halqa hosil qilinadi. Yo'rma choklari bilan yirik kashtalarning hoshiyalari, gul va barglarni asosiy shoxga ulaydigan band va boshqalar qadimdan shunday usulda tikilgan. Yo'rma chokdan Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo kashtado'zlari ko'p foydalanadilar.



Nazorat uchun savollar:

1. Kashtachilik tarixi haqida so'zlab bering?
2. O'zbekiston kashtachilik maktablari?
3. Kashtachilik bezakli buyumlar?
4. Kashtachilik usulida tayyorlangan kiyim turlari?
5. Kashtachilik usulida tayyorlangan uy-jixoz buyumlari?
6. Kashtachilikda ishlatiladigan iplar?
7. Kashtachilikda ishlatiladigan asbob-uskunalar?
8. Kashtachilikda ishlatiladigan chok turlari?

Foydaniilgan adabiyotlar:

1. I. Jabborov «o`zbek xalq etnografiyasi» T-1994
2. T. Xo`jayev. K.Abdullayev «Ajdodlar qiyofasi» Turkiston gaz. 92.26.IX.
3. M.Rustomov«O`zbekiston etnografiyasi»Tosh;1991I-IV jild.
4. Ostrumov. N.P. Sartu T. 1908.
5. Tolstov. S.P. «qadimiy Xorazm mad. izlab»T. Fan 1957.
6. I. Jabborov «o`zbek xalq etnografiyasi». Tosh.1994
- U. Qaroboyev «o`zbek bayramlari» T. 1991.

